JADIDCHILIK HARAKATLARIDA PEDAGOGIK QARASHLARNING SHAKLLANISHI

Esanova Gulnoza Sharof qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakati davomida pedagogik qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Jadidchilarning ta'lim sohasidagi islohotlari, zamonaviy ta'lim tamoyillarini joriy etishga qaratilgan sa'y-harakatlari va o'quv jarayonini yangilashga qo'shgan hissalari ko'rib chiqiladi. Maqola milliy ta'lim tizimiga asos solgan tamoyillarni yoritib beradi hamda XX asr boshlaridagi o'zbek darsliklarining pedagogik va didaktik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, pedagogik qarashlar, boshlang'ich ta'lim, darsliklar, ta'lim islohotlari, milliy ma'rifatparvarli

Annotation. This article examines the formation and development of pedagogical views during the Jadid movement. It explores the educational reforms initiated by the Jadids, their efforts to introduce modern educational principles, and their contributions to updating the teaching process. The article highlights the principles that laid the foundation for the national education system and analyzes the pedagogical and didactic characteristics of Uzbek textbooks from the early 20th century.

Keywords: Jadid movement, pedagogical views, primary education, textbooks, educational reforms, national enlightenment.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование и развитие педагогических взглядов в ходе джадидистского движения. Исследуются образовательные реформы, инициированные джадидистами, их усилия по внедрению современных образовательных принципов и вклад в обновление учебного процесса. Статья освещает принципы, положенные в основу национальной системы образования, и анализирует педагогические и дидактические особенности узбекских учебников начала XX века.

Ключевые слова: Джадидизм, педагогические взгляды, начальное образование, учебники, образовательные реформы, национальное просвещение.

Kirish.

XX asr boshlarida o'zbek milliy ma'rifatparvarlik harakati – jadidchilik harakati ta'lim va tarbiyani yangi bosqichga ko'tarish maqsadida shakllandi. Jadidchilar o'z davrida zamonaviy bilimlarni yosh avlodga yetkazish va millatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ta'limga alohida e'tibor qaratganlar. Bu jarayonda ular o'qitish uslublarini modernizatsiya qilish, darsliklarni yangilash va milliy

ISSN 3030-3907

qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy pedagogik tamoyillarni joriy etishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan.

Bugungi kunda ta’lim tizimining modernizatsiyasi va milliy pedagogik merosni o‘rganish borasidagi ishlar davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan: yangi tahrirdagi "Ta’lim to‘g‘risidagi qonun" milliy ta’lim tizimini rivojlantirish va zamonaviy metodlarni tatbiq etishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonunda ta’limning uzluksizligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish masalalariga alohida urg‘u berilgan."2030-yilgacha bo‘lgan ta’limni rivojlantirish strategiyasi"da esa innovatsion yondashuvlar, yangi avlod darsliklari va ta’lim sifatini oshirish borasidagi rejalar belgilangan. Bu hujjatlar milliy pedagogik merosni chuqur o‘rganish va zamonaviy talablarga moslashtirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" haqidagi farmoni milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.
Jadidchilik harakati ta’lim tizimini isloh qilishda birinchi qadamni tashlagan milliy harakat sifatida nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ta’lim tizimi uchun dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu maqolada jadidchilarning pedagogik qarashlari, ularning asosiy tamoyillari va o‘sha davrda yaratilgan boshlang‘ich ta’lim darsliklarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Jadidchilik harakati nafaqat madaniy va ijtimoiy islohotlar, balki ta’lim tizimini modernizatsiya qilish orqali milliy uyg‘onishning muhim bosqichi bo‘ldi. Ular “ma’rifat orqali milliy rivojlanish” g‘oyasiga tayangan holda, ilg‘or pedagogik yondashuvlarni hayotga tatbiq etishga harakat qildilar. Bu borada jadidlarning boshlang‘ich ta’limga oid darsliklar yaratish tajribasi, o‘qitishning yangi usullari va yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda milliy pedagogik merosni chuqur o‘rganish ta’lim sifatini oshirish va milliy identitetni mustahkamlash uchun muhimdir. Jadidlarning innovatsion qarashlarini tahlil qilish zamonaviy ta’lim dasturlarini boyitishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, mamlakatda milliy ta’lim tarixini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "Zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish va nashr qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. Bu qaror darsliklarni zamonaviy didaktik talablar asosida tayyorlashni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-iyundagi "Milliy darsliklarni yaratishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish" to‘g‘risidagi qarori. Ushbu hujjatda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar joriy etilishi va bu borada milliy merosni o‘rganishning ahamiyati ta’kidlangan.

ISSN 3030-3907

Jadidchilik harakati vakillari ta’limni diniy madrasalar asosidan chiqarib, uni dunyoviy va zamonaviy yo‘nalishda rivojlantirishga harakat qildilar. Masalan, Usmon Nosiriy, Abdulla Avloniy, va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadidchilar tomonidan yangi usul maktablarining tashkil etilishi o‘sha davrning eng muhim yutug‘i bo‘ldi. Bu maktablarda nafaqat diniy, balki matematik, tarix, geografiya kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan.

Eng avvalo shunday savol tug‘iladi: Jadidchilik nima uchun yuzaga keldi? Uning mohiyati nimada? Turkistonda paydo bo‘lgan jadidchilikning o‘ziga xos xususiyatlari paydo bo‘lishi, taraqqiy topishi, jarayonlari va xotimasi qanday sodir bo‘ladi?

Ma’lumki, ijtimoiy hayot tarzinining muayyan davridagi holati jamiyat a’zolarining aksariyatini qoniqtirmay qoladi. Natijada ular ijtimoiy tuzumni o‘zgartirish yoki uni to‘g‘ri, qotib qolgan holatdan chiqarish uchun yo inqilob qilish, yo isloh etish harakatiga tushadilar.

Jadidlarning yuzaga kelishi ham muayyan ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik oqibatida sodir bo‘lgandi. Birlari jahongir g‘arb davlatlariiskanjasidan xalqlarning diniy mansublilik tuyg‘usini jo‘sh urdirgan holda kurash maydoniga kirib, ozodlikka erishish mumkin deb bildilar. Natijada tarixga "панисламизм" nomi bilan kirgan g‘arb jahongirligiga qarshi kurash harakati yuzaga keladi. Boshqalari mazlum xalqlarni etnik jiatdan jipslashtirib milliy ozodlik yo‘liga kirmoqchi bo‘ldilar Jadidlar ma’rifati haqida gap ketganda, dastavval qizimlik Ismoil Gaspirinskiyni (1352-1914) tilga olish kerak. U Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo‘lib maktabi usuli jadida ya’ni "yangi usul maktabi" ga asos soldi. Ma’lumki, islom olamida ham ta’lim va tarbiya tizimiga dastlab katta e’tibor bilan qaralgan. Musulmochilik qaror topganidan so‘ng arab davlatlarida ta’limning ikki bosqichli tizimi yuzaga keladi:

Turkistondagi maktablarning aksariyati masjidlar, mozorlar yonidagi binolarda yoki xususiy kishilar hovlilarida bo‘lgan. Masjid imomi yoki madrasani hatm gilgan kishilar maktabdorlik qilshgan. Maktablarda o‘g‘il bolalarni domla o‘qitgan. Qiz bolalarni o‘z uyida o‘qitgan ayollarni otinoyi, otinbibi, bibihalifa, bibiotin kabi nomlar bilan atashgan. Maktablarda o‘qitishning rasmiy dasturi bo‘lgan emas. Shunday bo‘lsa-da, odatda islom dini asoslari o‘qitilgan, yozuv va arifmetikadan saboq berilgan. O‘qish jarayoni arab xarfi va so‘zarini so‘ngra, Qur’onni arab tilda o‘qitish va yodlashdan iborat bo‘lgan. O‘quvchi arab harflarining nomini hamda yozilishini o‘rganish uchun ko‘p vaqt mehnat qilgan.

O‘quvchilar arab harflarini o‘rganib olgandan keyingina Quronning ayrim suralarini hijjalab o‘qishga tushgan. Quron suralarini o‘qib tugatgan o‘quvchilar uni to‘liq yod olishga kirishgan. Bundan so‘ng esa diniy kitoblarni o‘qishga e’tiborlarini qaratishgan. Behbudiy o‘z uyida ochgan "usuli jadid" maktabining butun moddiy

ISSN 3030-3907

harajatlarini o‘z gardaniga oladi. "Padarkush"ning sahnaga qo‘yilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Toshkentdagi "usuli jadid" maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun darslik va qo‘llanmalarni tekinga bosib tarqatdi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxona va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham uning hisobidan chiqqan edi.

Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li "usuli savtiya" maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiaton o‘lkasidagi aholini qanday madaniy-ma’naviy uzlatda saqlayotganini va undan qutilish choralari faqat maktab ta’lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog‘liqligini to‘g‘ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakichilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi: mana shu maqsad yo‘lida Toshkentda ilg‘or fikirli ziyolilar va turli guruhlardan iborat "Turon" jadidlar jamiyatini tashkil etdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Jadidchilik harakati va uning pedagogik qarashlari bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar asosan XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish davri ta’lim tizimini yoritishga qaratilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish uchun muhim bo‘lgan bir qator manbalar mavjud bo‘lib, ular tarixiy, pedagogik va madaniy jihatdan boy axborotni o‘z ichiga oladi. Jadidchilik harakati vakillari o‘z asarlarida milliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning asarlari pedagogik qarashlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o‘sha davr ta’limining asosiy maqsadlari va tarbiya tamoyillarini belgilab bergan. Ushbu asarda ta’lim va tarbiyaning bir-biriga bog‘liqligi haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonovning darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari milliy ta’limni shakllantirishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Uning o‘qish va yozuv bo‘yicha yozgan kitoblari yangi usul maktablarining didaktik asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Fitratning ilmiy-pedagogik faoliyati milliy uyg‘onishning nazariy asoslarini belgilashga qaratilgan bo‘lib, uning “Rahbari najot” asari ta’limning milliy qiyofasini yaratishga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Jadidchilar tomonidan yaratilgan darsliklar nafaqat ta’lim-tarbiyaviy jihatdan, balki o‘z davrining didaktik talablariga mosligi bilan ham ajralib turadi. Ushbu darsliklarning ba’zilari:

“Usuli savtiya” – bu usul asosida yaratilgan darsliklar tezkor savod o‘rgatish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u zamonaviy o‘qitish metodikasiga asos bo‘lgan.

“Sabzazor” va “Chor kitob” kabi darsliklar ta’limda milliy qadriyatlar va axloqiy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilgan.

Bu darsliklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati vakillari nafaqat o‘quv materialining mazmuniga, balki uning o‘quvchilarga yetkazilish

ISSN 3030-3907

uslubiga ham katta ahamiyat bergan. Bugungi kunda jadidchilik pedagogik qarashlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda:

Y. G‘ulomov va X. Hasanovning tadqiqotlari jadidchilikning milliy ta’lim tizimidagi ahamiyatini yoritadi. Ular o‘z ishlari orqali jadid darsliklarining zamonaviy ta’lim metodikasiga ta’sirini o‘rgangan.

Sh. Rahmonov va I. Qo‘chqorov tadqiqotlarida jadidlarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari hamda ularning darsliklardagi aksini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Jadidchilik merosining zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni to‘g‘risida rasmiy hujjatlar va davlat qarorlari ham muhim ma’lumot manbai hisoblanadi Jadidchilik harakati pedagogik qarashlarining shakllanishini o‘rganish uchun birlamchi manbalar (jadidlarning asarlari va darsliklari), zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va qonunchilik hujjatlari tahlili zarur. Ushbu adabiyotlarning chuqur tahlili milliy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishidagi jadidlarning hissasini to‘liq ochib beradi hamda zamonaviy ta’lim tizimi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi jadidchilik harakati pedagogik qarashlarining shakllanishini va ularning ta’lim tizimiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish uchun tanlangan usullar va yondashuvlarni belgilaydi. Ushbu tadqiqotning nazariy asoslari tarixiy-pedagogik yondashuv, ijtimoiy-madaniy tahlil va didaktik tahlil usullariga tayangan.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- Tarixiy-tahliliy usul orqali jadidchilik harakatiga oid birlamchi manbalar, masalan, asarlar va darsliklar tahlil qilindi.
- Qiyosiy-tahlil usuli yordamida XX asr boshlaridagi ta’lim tizimi va zamonaviy ta’lim tizimi solishtirildi.
- Matnshunoslik usuli jadidlarning pedagogik asarlaridagi asosiy g‘oyalarni aniqlash va ularning ta’limga oid qarashlarini ochib berishga imkon yaratdi.
- Kontent-tahlil yordamida o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarning mazmuni, pedagogik yondashuvlari tizimli ravishda o‘rganildi.

Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida jadidchilik harakati vakillari, jumladan, Abdulla Avloniy, Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi mualliflarning asarlari va ular yaratgan darsliklar foydalanildi. Ikkinchi darajali manbalar sifatida zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Shu bilan birga, ta’lim tizimi bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari, masalan, "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun va ta’limni rivojlantirish strategiyalari ham asosiy dalil sifatida o‘rganildi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari milliy ta’lim tizimini rivojlantirishda, yangi darsliklarni ishlab chiqishda va milliy pedagogik merosni o‘rganishda amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu tadqiqot XX asr boshlaridagi darsliklarning zamonaviy ta’limga qanchalik mos kelishini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Jadidchilik harakatlari, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ta’lim tizimida katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi an’anaviy ta’lim tizimini yangilash va uni zamon talablari bilan moslashtirish edi. Jadidchilik harakatining pedagogik qarashlari, o‘zining ilmiy-uslubiy yondashuvi bilan, milliy ta’limni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi.

Tadqiqotimizda aniqlanganidek, jadidchilik harakatlarining pedagogik qarashlari ta’lim tizimida ilm-fan, ma’rifat va ahloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga intilgan. Ularning ta’lim usullari va metodlari o‘quvchilarga erkin fikrlash, mustaqil ilm olish, va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashish imkoniyatlarini yaratdi. Bu qarashlar, ayniqsa, qizlarni ta’lim olishga jalb qilishda muhim rol o‘ynadi va ta’lim sohasidagi gender tenglikni kuchaytirdi.

Jadidchilik harakatlarining pedagogik qarashlarining shakllanishi va amaliyotga tatbiqi natijasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanib, yangi bilimlarga oid yangicha yondashuvlar joriy etildi. Biroq, har bir jadidchining pedagogik qarashlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ba’zi holatlarda qarama-qarshi fikrlar mavjudligi ko‘zga tashlandi. Jadidchilik harakatlarining ayrim metodlari, masalan, tez-tez o‘zgarayotgan davr talablariga moslashishda ba’zi muammolarni keltirib chiqargan bo‘lsa-da, ular ta’lim tizimiga inqilobiy o‘zgarishlarni olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakatlarining pedagogik qarashlari o‘z vaqtida ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va yangilashga yordam berdi, shuningdek, mustaqil fikr va yangi bilimlarga asoslangan ta’limning rivojlanishiga asos yaratdi. Bugungi kunda jadidchilik qarashlarining ta’lim tizimidagi ahamiyati, yosh avlodning ilm-fan, tafakkur va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishida davom etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Jadidchilik harakatlari, Markaziy Osiyoda ta’lim tizimini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular o‘zining yangicha pedagogik qarashlari orqali an’anaviy ta’lim tizimiga inqilobiy o‘zgarishlar kiritishga intilishdi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, jadidchilik harakatlarining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni, mustaqil fikrlashni, va ijtimoiy mas’uliyatni o‘rgatish edi. Bu pedagogik qarashlar o‘z navbatida o‘quvchilarning intellektual va ahloqiy rivojlanishiga, shuningdek, jamiyatda o‘zgarishlar qilishga imkon berdi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, jadidchilik harakatlarining pedagogik usullari o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishda yordam berib, ularni hayotga tayyorlashda muhim o‘rin tutdi. Ularning ta’lim tizimidagi islohotlari, nafaqat bilimni kengaytirish, balki o‘quvchilarda yangi yondashuvlarni va erkin fikrlashni shakllantirishga qaratilgan edi.

Biroq, jadidchilik harakatlarining ba’zi metodlari va qarashlari, zamon o‘zgarishlariga moslashishda ba’zi cheklovlar va muammolarni yuzaga keltirgan. Shunga qaramay, bu harakatlarning ta’limga qo‘shgan hissasi katta bo‘lib, bugungi kunda ham ta’lim tizimida ulardan o‘rganish va foydalanish mumkin.

Jadidchilik harakatlarining pedagogik qarashlari va metodlarini hozirgi ta’lim tizimiga moslashtirib, zamonaviy pedagogik metodlarni ishlab chiqish lozim. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘qish metodlari ko‘proq joriy etilishi kerak.

O‘qituvchilarga jadidchilik harakatlari asosida pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu o‘qituvchilarning professional rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Jadidchilik harakatlarining ta’lim tizimidagi ahamiyatini o‘rgatish va yosh avlodga ulardan ilhom olish imkoniyatlarini yaratish lozim. Bu orqali, yoshlar o‘zlarining ilmiy va ijtimoiy mas’uliyatini chuqurroq anglaydilar.

Bugungi kunda gender tengligi va ta’limda hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish masalalariga e’tibor qaratilishi kerak. Jadidchilik harakatlarining bu boradagi tajribalari muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim tizimida jadidchilik harakatlarining yutuqlarini, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish va zamon bilan moslashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov, I. A. (2010). Yoshlar va ta'lim tizimi: muammolar va yechimlar. O‘zbekiston.
2. Abdullaeva, G. B. (2015). Ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va metodik usullar. O‘qituvchi.
3. Qosimov, R. K. (2018). Pedagogik qarashlar va ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish. Ta'lim nashriyoti.
4. G‘ulomov, M. T. (2012). Ta'lim va pedagogika nazariyasi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
5. Mirzaev, A. A. (2017). Zamonaviy ta'lim metodikasi. O‘zbekiston, Toshkent.
6. Shodmonov, S. A. (2009). Jadidchilik harakatlari va ta'limda inqilobiy o‘zgarishlar. O‘qituvchi.
7. Safarov, N. B. (2010). Markaziy Osiyo ta'limida jadidchilik harakatlari. Ta'lim nashriyoti.

ISSN 3030-3907

8. Toshpulatov, B. K. (2015). Jadidchilik va uning ta'lim tizimidagi o‘rni. Fan va texnologiya.

9. Yusupov, T. R. (2012). Jadidchilik harakatlarining pedagogik qarashlari. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

10. Abdurahmonov, K. M. (2017). Jadidchilik harakatlarida ta'lim metodlarining rivojlanishi. Ta'lim va madaniyat.

11. Rayimova, D. D., qizi Bahronova, S. I., Ruziyeva, D. Z. M., & Davlatova, N. U. (2023). Texnologiya ta’limi praktikumi fanini o ‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo ‘llash imkoniyatlari. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(5), 616-619.

12. Rayimova, D., & Axmadova, M. (2024). HOZIRGI KUNDA ROBOTLARNING O’RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(12), 329-334.

13. Dilmurodovna, R. D. (2024). TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USULLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, *1*(2), 109-115.

14. Dilmurodovna, R. D., & Shaxrulloyevna, S. E. (2024). ROBOTOTEXNIKA VA UNING RIVOJLANISHI TARIXI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, *1*(2), 22-26.

15. Rustamov, E., & Rayimova, D. (2024). CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY IN STUDENTS. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, *2*(9), 397-405.

ISSN 3030-3907